

Farg'ona viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi


2025- yil yanvar-sentabr oylari uchun

- I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Farg'ona viloyati qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2025-yilning yanvar-sentabr oylarida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 34 534,7 mlrd so'mni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 34 011,3 mlrd so'mni, o'rmon xo'jaligi – 339,2 mlrd so'mni, baliqchilik xo'jaligi – 184,3 mlrd so'mni tashkil qildi.

Farg'ona viloyatida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining o'sish sur'ati



II. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Oltiariq (2 986,1 mlrd so'm), Farg'ona (2 795,4 mlrd so'm), Beshariq (2 435,1 mlrd so'm), Quva (2 423,0 mlrd so'm), Rishton (2 398,1 mlrd so'm) va Bag'dod (2 346,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qo'qon sh (278,3 mlrd so'm), Marg'ilon sh (506,5 mlrd so'm) va So'x tumanini (570,1 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.



	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Farg'ona viloyati	34 534,7	107,1
Farg'ona sh	849,8	100,8
Qo'qon sh	278,3	110,0
Quvasoy sh	1 580,0	103,8
Marg'ilon sh	506,5	102,7
tumanlar:		
Oltiariq	2 986,1	120,1
Qo'shtepa	2 329,7	105,2
Bag'dod	2 346,4	104,8
Buvayda	2 245,8	106,5
Beshariq	2 435,1	103,6
Quva	2 423,0	106,8
Uchko'prik	2 053,4	105,9
Rishton	2 398,1	108,1
So'x	570,1	107,4
Toshloq	1 962,6	105,2
O'zbekiston	2 077,1	107,0
Farg'ona t	2 795,4	107,5
Dang'ara	1 908,4	109,2
Furqat	1 434,9	104,7
Yozyovon	1 354,0	106,2

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Oltiariq (120,1 %), Qo'qon sh (110,0 %), Dang'ara (109,2 %), Rishton (108,1 %) va Farg'ona (107,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Farg'ona sh (100,8 %), Marg'ilon sh (102,7 %), Beshariq t (103,6%) va Quvasoy (103,8%) shaharlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2025-yilning yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 33 689,1 mlrd so'mni yoki 2024-yilning mos davriga nisbatan 107,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 19 280,9 mlrd so'mni (110,0 %), chorvachilik mahsulotlari 14 408,2 mlrd so'mni (102,7 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Oltiariq (2 954,3 mlrd so'm), Farg'ona (2 684,0 mlrd so'm), Beshariq (2 333,9 mlrd so'm) va Quva (2 332,7 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qo'qon sh (261,7 mlrd so'm), Marg'ilon sh (504,3 mlrd so'm) va So'x tumanini (563,1 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Oltiariq (119,8 %), Qo'qon sh (110,4 %), Dang'ara (108,9 %) va Rishton (107,9 %) tumanlarida qayd etildi. Farg'ona sh (100,6 %) Marg'ilon sh (102,7 %), Beshariq (103,5 %) da esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 61,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 35,0 % i fermer xo'jaliklariga, 3,8 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Farg'ona (1 437,0 mlrd so'm), Buvayda (1 010,5 mlrd so'm), Oltiariq (1 000,3 mlrd so'm), Bag'dod (959,5 mlrd so'm) va Uchko'priq (948,6 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qo'qon sh (170,7 mlrd so'm), So'x (304,5 mlrd so'm) va Marg'ilon sh (350,2 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Qo'qon sh (107,1 %), Beshariq (106,1 %), Farg'ona (106,0 %), , Ёзёвон (104,0 %) tumanlarida qayd etildi. Farg'ona sh (98,9 %), Тошлоқ (100,6%), Сўх (100,8 %) va Ўзбекистон (101,3 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2025-yilning yanvar-sentabr oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 151,6 ming tonna go'sht, 862,5 ming tonna sut, 556,7 mln dona tuxum, 1 273 tonna qirqib olingan jun va 8 996,8 tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 106,0 % ni, sog'ib olingan sut – 101,6 % ni, olingan tuxum – 107,1 % ni, qirqib olingan jun – 103,7 % ni hamda ovlangan baliqlar – 120,2 % ni tashkil qildi.

2025- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 4,7 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 77,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 18,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 9,0 % i fermer xo'jaliklari, 89,3 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

Shu bilan birga, olingan tuxumning 24,8 % i fermer xo'jaliklariga, 60,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 15,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan junning 10,8 % i fermer xo'jaliklari, 88,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 77,3 % i fermer xo'jaliklariga, 3,0 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 19,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

**2025- yil yanvar-sentabr oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-sentabr 2025- y	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), ming tonna	151,6	106,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	7,1	105,7
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	117,0	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	27,5	137,7
Sut, ming tonna	862,5	101,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	77,9	119,3
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	770,4	99,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	14,2	138,5
Tuxum, mln dona	556,7	107,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	138,0	122,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	335,2	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	83,5	111,6
Jun, tonna	1 273,0	103,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	138,0	116,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 126,0	102,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi	9,0	180,0



tashkilotlar

Baliq, tonna	8 996,8	120,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	6 957,8	111,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	267,1	104,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 771,9	178,4

Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari hajmi

	Go'sht (tirik vaznda), tonna	Sut, tonna	Tuxum, ming dona
Farg'ona viloyati	151 550,0	862 503,0	556 731,0
Farg'ona sh	7 369,6	13 592,2	21 414,1
Qo'qon sh	2 168,6	3 916,3	6 090,1
Quvasoy sh	5 354,6	25 076,7	82 914,7
Marg'ilon sh	5 109,6	4 910,8	6 067,0
tumanlar:			
Oltiariq	9 908,8	56 384,6	20 127,7
Qo'shtepa	6 452,9	46 566,1	28 126,1
Bag'dod	10 049,9	62 078,6	31 384,1
Buvayda	9 277,9	65 421,1	17 679,8
Beshariq	6 743,8	74 973,8	93 025,3
Quva	8 464,4	54 926,8	18 727,2
Uchko'prik	8 622,7	57 993,7	45 946,1
Rishton	8 100,2	53 398,8	21 485,2
So'x	2 213,7	26 274,1	6 676,2
Toshloq	8 122,6	49 349,6	19 878,0
O'zbekiston	7 718,7	60 388,6	25 430,5
Farg'ona	28 700,8	75 506,2	19 829,3
Dang'ara	8 063,5	50 562,9	40 761,7
Furqat	5 264,7	47 822,9	33 369,1
Yozyovon	3 843,0	33 359,2	17 798,8

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Oltiariq (1 954,0 mlrd so'm), Qo'shtepa (1 561,5 mlrd so'm), Rishton (1 512,6 mlrd so'm), Quva (1 438,3 mlrd so'm) va Beshariq (1 386,7 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Qo'qon (91,0 mlrd so'm) Marg'ilon (154,1 mlrd so'm) va Farg'ona (170,0mlrd so'm) shaharlarini keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Oltiariq (128,1 %), Qo'qon sh (115,3 %), So'x (115,3 %), Dang'ara (115,2 %) va Rishton (110,8 %) tumanlarida qayd etildi. Beshariq (102,0 %),



Marg'ilon sh (103,8 %), Quvasoy sh (104,6 %) va Furqat (105,1 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan donlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	956 262,6	109,9
Farg'ona sh	1 827,7	95,1
Qo'qon sh	267,7	152,9
Quvasoy sh	11 881,5	117,1
Marg'ilon sh	120,6	117,5
tumanlar:		
Oltiariq	48 671,5	102,0
Qo'shtepa	85 430,1	105,2
Bag'dod	81 330,9	103,8
Buvayda	77 907,2	110,1
Beshariq	78 370,0	103,7
Quva	66 951,8	112,3
Uchko'prik	58 242,7	122,9
Rishton	80 775,3	110,5
So'x	4 584,1	119,8
Toshloq	50 341,2	106,7
O'zbekiston	50 536,3	124,4
Farg'ona	45 402,5	111,5
Dang'ara	90 545,1	120,0
Furqat	64 564,9	104,5
Yozyovon	58 511,5	107,2

Yetishtirilgan don umumiy hajmining eng yuqori ulushi Dang'apa (9,5 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Qo'shtepa (8,9 %), Bag'dod (8,5 %), Rishton (8,4 %), Beshariq (8,2 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Qo'qon sh (0,5 %), Marg'ilon shahri (0,9 %) va Farg'ona sh (1,3 %) da kuzatildi. 2024-yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Qo'qon sh (152,9 %), O'zbekiston (124,4 %), Uchko'prik (122,4 %), Dang'ara (120,0 %) va So'x (119,8 %) tumanlarida qayd etildi.



Hududlar kesimida yetishtirilgan kartoshka hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	317 426	100,4
Farg'ona sh	4 069,5	105,4
Qo'qon sh	1 713,2	102,8
Quvasoy sh	11 964,4	86,4
Marg'ilon sh	2 746,5	128,2
tumanlar:		
Oltiariq	16 732,8	96,1
Qo'shtepa	23 299,8	94,3
Bag'dod	16 880,0	103,0
Buvayda	24 314,9	99,8
Beshariq	25 129,3	104,5
Quva	20 882,0	109,4
Uchko'prik	17 428,9	100,2
Rishton	14 384,0	111,0
So'x	18 537,9	107,9
Toshloq	22 225,3	100,6
O'zbekiston	23 444,4	99,6
Farg'ona	19 894,7	96,1
Dang'ara	18 762,0	99,7
Furqat	13 235,8	91,3
Yozyovon	21 780,6	101,3

Yetishtirilgan kartoshka umumiy hajmining eng yuqori ulushi Yozyovon (8,0 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Beshariq (7,9 %), Buvayda (7,7 %), O'zbekiston (7,4 %), Qo'shtepa (7,3 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Qo'qon (0,5 %), Marg'ilon (0,9 %) va Farg'ona (1,8 %) shaharlarida kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Marg'ilon sh (128,2 %), Rishton (111,0 %), Quva (109,4 %), So'x (107,9 %), Farg'ona sh (105,4 %) va Beshariq (104,5 %) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	1 113 064,6	106,4
Farg'ona sh	13 538,8	101,3
Qo'qon sh	3 283,5	119,5
Quvasoy sh	29 949,6	112,7
Marg'ilon sh	7 757,7	98,3
tumanlar:		
Oltiariq	150 463,9	106,9
Qo'shtepa	92 034,2	107,3
Bog'dod	83 618,1	108,7
Buvayda	78 191,7	112,7
Beshariq	74 282,7	94,1
Quva	99 090,5	122,1
Uchko'prik	60 594,6	103,9
Rishton	94 963,7	106,1
So'x	9 360,5	101,3
Toshloq	84 048,9	106,2
O'zbekiston	44 806,8	86,3
Farg'ona	58 493,3	106,6
Dang'ara	40 370,0	113,3
Furqat	43 491,0	111,1
Yozyovon	44 725,1	99,3

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Oltiariq tumani (13,5 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Quva (8,9 %), Rishton (8,5 %), Qo'shtepa (8,3 %), Toshloq (7,6 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Qo'qon sh (0,3 %), Marg'ilon sh (0,7 %) va So'x (0,8 %) tumanida kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Quva (122,1 %), Qo'qon sh (119,5 %), Dang'ara (113,3 %), Buvayda tumani hamda Quvasoy sh (112,7 %), Furqat

(111,1 %), Bag'dod (108,7 %), Qo'shtepa (107,3 %) va Farg'ona (106,6 %) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan poliz ekinlari hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	126 551,3	158,7
Farg'ona sh	174,0	162,0
Qo'qon sh	476,1	0,0
Quvasoy sh	1 605,3	114,6
Marg'ilon sh	0,0	0,0
tumanlar:		
Oltiariq	17 878,8	229,7
Qo'shtepa	22 499,1	320,1
Bag'dod	10 087,1	138,9
Buvayda	10 202,3	123,5
Beshariq	9 148,6	139,9
Quva	7 840,3	110,5
Uchko'prik	7 597,7	136,5
Rishton	4 518,8	122,9
So'x	0,0	0,0
Toshloq	7 520,0	126,1
O'zbekiston	7 225,8	110,9
Farg'ona	1 313,4	118,0
Dang'ara	7 897,2	146,9
Furqat	2 760,5	194,6
Yozyovon	7 806,3	169,2

Yetishtirilgan poliz ekinlari umumiy hajmining eng yuqori ulushi Qo'shtepa tumani (17,8 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Oltiariq (14,1 %), Buvayda (8,1 %), Bag'dod (8,0 %), Beshariq (7,2 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar So'x (0,0 %) tumani hamda Marg'ilon (0,0 %), Farg'ona (0,1 %) va Qo'qon (0,4%) shaharlarida kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari



Qo'shtepa (3,2 m), Oltiariq (2,3 m), Furqat (194,6 %), Yozyovon (169,2 %), Farg'ona sh (162 %), Dang'ara (146,9 %), Beshariq (139,9 %) va Bag'dod (138,9 %) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan meva va reravorlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	380 544,2	110,9
Farg'ona sh	5 609,3	105,2
Qo'qon sh	5 382,4	109,5
Quvasoy sh	56 903,6	104,3
Marg'ilon sh	7 164,1	104,6
tumanlar:		
Oltiariq	18 903,7	118,8
Qo'shtepa	19 740,2	111,2
Bag'dod	23 274,4	111,8
Buvayda	10 947,6	127,8
Beshariq	29 417,8	106,8
Quva	30 291,2	104,7
Uchko'prik	21 772,7	106,7
Rishton	32 767,5	118,4
So'x	9 243,1	115,9
Toshloq	17 875,5	114,3
O'zbekiston	33 036,9	117,6
Farg'ona	39 943,5	112,4
Dang'ara	8 460,1	113,4
Furqat	5 049,9	103,7
Yozyovon	4 760,7	112,4

Yetishtirilgan meva va rezavorlar umumiy hajmining eng yuqori ulushi Quvasoy (15,0 %) shahri hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Farg'ona (10,5 %), O'zbekiston (8,7 %), Rishton (8,6 %), Quva (8,0 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Yozyovon (1,3 %) va Furqat (1,3 %) tumanlarida hamda Qo'qon (1,4%), Farg'ona (1,5%) shaharlarida kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Buvayda (127,8 %), Oltiariq (118,8 %), Rishton



(118,4 %), O'zbekiston (117,6 %), So'x (115,9 %), Toshloq (114,3 %), Dang'ara (113,4 %) va Farg'ona (112,7 %) tumanlarida qayd etildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan uzum hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	150 986,0	125,0
Farg'ona sh	1 067,3	162,2
Qo'qon sh	211,3	537,7
Quvasoy sh	3 218,6	106,5
Marg'ilon sh	2 924,8	104,0
tumanlar:		
Oltiariq	69 965,0	164,6
Qo'shtepa	16 670,8	87,5
Bag'dod	4 175,8	105,9
Buvayda	4 180,7	104,4
Beshariq	1 408,9	547,8
Quva	5 178,3	95,0
Uchko'prik	1 465,4	113,5
Rishton	3 023,7	100,5
So'x	16,2	111,0
Toshloq	2 334,3	207,3
O'zbekiston	10 260,0	103,6
Farg'ona	16 177,2	104,6
Dang'ara	4 707,3	106,6
Furqat	985,1	114,3
Yozyovon	3 015,3	102,3

Yetishtirilgan uzum umumiy hajmining eng yuqori ulushi Oltiariq (46,3 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Qo'shtepa (11,0 %), Farg'ona (10,7 %), O'zbekiston (6,8 %), Quva (3,4 %) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar So'x (0,0 %), Qo'qon (0,1 %) va Farg'ona (0,7 %) shaharlari hamda Furqat (0,7%) tumanlarida kuzatildi. 2024- yilning mos davriga nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Beshariq (5,5 m), Qo'qon sh (5,4 m), Toshloq (2,1 m), Oltiariq



(164,6 %), Farg'ona sh (162,2 %), Furqat (114,3 %) va Uchko'prik (113,5 %) tumanlarida qayd etildi.

IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2025- yilning 1- oktyabr holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1 112,8 ming boshga yetdi, (2024- yilning 1-oktyabr holatiga nisbatan 1,0 % ga ko'p), sigirlar 406,8 ming boshga (0,6 % ga ko'p), qo'y va echkilar 952,2 ming boshga (1,4 % ga ko'p), parrandalar 9 236,6 ming boshga (4,8 % ga ko'p) yetdi.

2025- yilning 1- oktyabr holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Ming bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	1 112,8	101,0
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	87,8	105,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	1 013,8	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	11,2	106,7
shundan sigirlar	406,8	100,6
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	37,6	107,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	363,8	99,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5,4	131,7
Qo'y va echkilar	952,2	101,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	101,0	109,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	842,1	100,6
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	9,1	97,8
Otlar	11,0	103,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	3,0	112,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	7,8	100,8
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	0,2	83,1
Parrandalar	9 236,6	104,8
shu jumladan:		



fermer xo'jaliklari	1 760,0	111,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	5 436,0	100,4
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 040,6	111,8

2025- yilning 1- oktyabr holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 7,9 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 91,1 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 9,3 % i fermer xo'jaliklariga, 89,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,3 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 10,6 % i fermer xo'jaliklariga, 88,4 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,0 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 19,0 % i fermer xo'jaliklariga, 58,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 22,1 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2025- yilning 1- oktyabr holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Farg'ona viloyati	1 112,8	952,2	9236,6
Farg'ona shaxar	16,4	15,8	512,7
Qo'qon shaxar	6,9	12,6	46,4
Quvasoy sh	35,1	25,6	950,3
Marg'ilon sh	10,7	13,3	237,7
tumanlar:			
Oltiariq	78,6	54,1	305,2
Qo'shtepa	70	60,0	583,4
Bag'dod	82,1	71,2	812,3
Buvayda	71,9	63,2	348,7
Beshariq	89,7	71,5	1090,7
Quva	77,3	87,5	456,8
Uchko'prik	77,9	51,9	595,1
Rishton	65,9	61,0	373,6
So'x	23,8	25,5	89,1
Toshloq	59,8	54,7	339,3
O'zbekiston	72,2	65,8	445,2
Farg'ona	83,6	56,7	777,9
Dang'ara	89,7	62,0	563,6



Furqat	61,3	46,9	394,3
Yozyovon	39,9	52,9	314,3

VI. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik sub'ektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi sub'ekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://farstat.uz/uz/nashrlar/press-relizlar.html>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
S. Sultonov
73 241-98-30

Manzil:

